

**O‘ZBEKISTON SSRDA MASJIDLAR QANDAY FAOLIYAT YURGIZGAN  
VA DINIY XODIMLARGA QILINGAN ZIDDIYATLI MUNOSABAT**

Arslonbekov Nursulton Azizbek o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

[arslonbekovnursulton@gmail.com](mailto:arslonbekovnursulton@gmail.com)

**КАК ФУНКЦИОНИРОВАЛИ МЕЧЕТИ В УЗБЕКСКОЙ ССР И  
ПРОТИВОРЕЧИВОЕ ОТНОШЕНИЕ К РЕЛИГИОЗНЫМ ДЕЯТЕЛЯМ**

Арслонбеков – сын Нурсултана Азизбека

Докторант (PhD) Каршинского государственного университета

**HOW MOSQUES FUNCTIONED IN THE UZBEK SSR AND  
CONFLICTING ATTITUDES TOWARDS RELIGIOUS WORKERS**

Arslonbekov Nursultan the son of Azizbek

Doctoral student (PhD) of Karshi State University

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Sobiq SSSR tarkibidagi jonajon Vatanimiz O‘zbekistonda masjidlar faoliyatining qaytadan yo‘lga qo‘yilishi bu borada qilingan amaliy ishlar, hamda masjid ochish uchun qo‘yilgan tashkiliy talablar hamda masjid xodimi bo‘lgan imom-xatiblarga qilingan ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy bosinning ortib borishi va ko‘plab dindor tabaqa vakillarining asossiz soliq va jarimalarga tortilishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar** : Ahmad Ali Maxdum masjidi, Din ishlari kengashi, daromad solig‘i, janoza va nikoh.

**Аннотация:**

В данной статье проведена практическая работа по возобновлению деятельности мечетей в Узбекистане, нашей стране, входившей в состав бывшего СССР, а также организационные требования к открытию мечети, а также социальные, политические, экономические говорят об усилении давления и введении необоснованных налогов и штрафов на многих представителей религиозной касты.

**Ключевые слова:** мечеть Ахмада Али Махдума, Совет по делам религии, подоходный налог, похороны и бракосочетание.

**Annotation:**

In this article, practical work has been done on the resumption of mosques in Uzbekistan, our country, which was part of the former USSR, as well as the organizational requirements for opening a mosque, as well as the social, political, economic there is talk of increased pressure and the imposition of unreasonable taxes and fines on many members of the religious caste.

**Keywords:** Ahmad Ali Makhдум Mosque, Council of Religious Affairs, income tax, funeral and marriage.

1943 - yil 22-oktyabrda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati yuzaga kelgach, tashkilot joylarda o'z vakillik idoralarini tuza boshladi. Albatta musulmonlar diniy nazorati va uning joylardagi organlari SSSR XKS tarkibidagi va uning eng muhim tashkiliy qismlaridan biri bo'lmish Din ishlari bo'yicha kengashga bo'ysunardi.

Din ishlari bo'yicha kengashning Andijon viloyati vakili Shokirovga O'zbekiston SSR diniy ishlar bo'yicha kengashi rahbari Ibodovdan 1945-yil yuborilgan buyruqqa ko'ra masjidlar faoliyatiga ruxsat olish uchun quyidagi talablar mavjud bo'lgan: avvalo masjid ochish uchun ruxsat so'rashda ularning ahvoli, hajmi, odamlarning soni, ariza topshiruvchilarning soni va ular saylov huquqiga ega ekanligi, masjid uchun so'ralgan binoning sanitar ahvoli, yong'inga qarshi qurollarga ega ekanligi, masjidning sholcha, namat kabi inventarlarga ega ekanligi kabi elementar jihatlargacha talab qilingan. Aslida bu Moskvaning iloji boricha cheklovlarni ushlab turish va madaniy hayotda dinning ta'sirini cheklashga nisbatan urinishi edi xolos.

Masjidlar nima uchun aynan shu davrda ochilganligini Ibodovning 1944-yil 23-oktyabrda barcha viloyat kompartiya rahbarlariga yo'llagan xatidan bilsa bo'ladi. Xatga ko'ra: Buxoro, Namangan, Andijon, Nukus, Farg'ona, Qarshi, Termiz, Samarqand viloyat rahbariyatiga "Tank qurilishi uchun fond tuzish" to'g'risida buyruq beriladi.

Albatta bu mablag'ning aksar qismi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazoratining sa'y-xarakatlari bilan yerli musulmon xalqdan yig'ib olinadi.



Lekin , shuni ta'n olish lozimki Moskvaning xayrixohligiga ishongan sodda xalq vakillari Moskvadan ruxsatsiz ham masjidlar ochishga va ularni ta'mirlashga kirishib ketadi.

Andijon viloyatida Lenin, Toshkent shaxrida Qoratosh, Qiyot, Toshkent viloyatida - Oltin - Obod, No'g'ay-Qo'rg'on, Buxoro viloyatida - Xazrati Jahon, Farg'ona viloyatida - Xonaqo, XazratiShayx , Chig'atoy kabi masjidlar Markazdan ruxsat so'rab barcha talablarni bajargan holda ochilgan bo'lsa, Andijon viloyatida 95ta, Farg'onada esa 15ta masjid hech qanday ruxsatsiz ochiladi. Bu kabi holat Moskvani sergaklantirib nazoratni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi.

**Diniy kadrlarga nisbatan bosimning kuchayishi:sabab va xavotirlar.** Avvalo tartibsiz holatda masjidlarning ochilishi Markazga shuni anglatdiki hali hamon yerli xalq diniy e'tiqodidan ayrilgani yo'q. 20 yil davomida olib borilgan Xudosizlik tashviqoti o'zining kutilgan samarasini bermadi. Shu sababli endi mahalliy xalq suyangan diniy arboblarni yomon otliq qilish, agar imkoni bo'lmasa turli vositalar orqali burchakka qadab, shu orqali masjidlarni berkitish siyosatiga o'tildi. Endigina urushdan chiqqan, faqatgina ruhiy tayanchi din bo'lgan xalqni sarosimaga solmaslik uchun bu ishlar sekin - asta qilindi. Mana shunday voqealardan biri Andijon viloyati Andijon tumani Kuybishev nomli ko'chada joylashgan , Ahmad Ali Maxdum masjidi va uning imomi Tursun qori Do'smatov bilan ro'y beradi.

1945 - yilda 61 kishi 4ta ariza bilan SSSR Diniy ishlar nazorati boshlig'i I.V.Polyankovskiyga murojaat qiladi. Ularning maqsadi, Andijon viloyati Andijon tumani Kuybishev nomli ko'chada joylashgan , Ahmad Ali Maxdum masjidini ochishni iltimos qilishadi.

1945 - yil 30 -avgustdagi, Diniy nazoratning O'zbekiston SSRdagi vakilligi Andijon viloyat diniy nazorati rahbari Abdurahmonov nomiga javob xati yo'llaydi. Xat mazmuniga ko'ra Andijon viloyati Andijon tumani Kuybishev nomli ko'chada joylashgan , Ahmad Ali Maxdum masjidi №608 buyruqqa asosan ochishga ruxsat beriladi.

**Imomga yuklangan soliq yuki:** 1945-yilda Ahmad Ali Maxdum masjidi ochilgach xalqning roziligi asosida diniy savodga ega bo'lgan mahalliy mullalardan Tursun Do'smatov nomli dehqon 67yoshda imom - xatib etib belgilanadi.

Mahalliy aholining imom domlaga nisbatan xayrixohligi va Andijon shaxrida ham uning xurmati yuqoriligi Partiya rahbariyatining nazariga tushadi va 1947 -yilda Tursun qori Do'smatovga nikoh va janoza mablag'laridan 11058 so'm daromad solig'i solinadi. Ana shu davrda ish haqining pastligi va endigina urushdan chiqqan



aholi uchun, xossatan hech bir moliyaviy manbaga ega bo‘lmagan 69yoshli qariya uchun bu juda ulkan mablag’ edi.

Aslida 1947-yil Ahmad Ali Maxdum masjidi mutavvaliyotining hisobiga ko‘ra shu yili, nikoh va janozadan bor yo‘g‘I 3420so‘m mablag’ O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy nazoratiga beriladi.1947 -yilda Tursun qori Do‘smatovga yillik 6000 so‘m oylik tarzida qaytarilishi belgilangani hisobga olinsa, Tursun qori Do‘smatovga 2580 so‘m berilmaydi.

Ammo shunday dalil va isbotlarga qaramay O‘zbekistonSSR Moliya vazirligi uning arizasini javobsiz qoldirib, 1948-yilda majburiy ravishda uyidagi yolg‘iz echki va qo‘yini olib qo‘yadi.

Bunday holatlar butun mintaqa bo‘ylab takrorlanadi va albatta og‘ir sinovli kunlarda ham diniy soha xodimlari matonat va sabr bilan yurt xizmatida davom etadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki tariximizning mana shunday og‘ir damlarida ham aziz ajdodlarimiz Haq yo‘lidan toyilmadilar, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan harakat qilib , el-u yurtimiz millatimizning bugungi yorug‘ kunlari uchun tamal toshini qo‘ydilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismoilova D. Mustabid tuzumning Turkistondagi diniy siyosati // O‘zbekiston tarixi. - Toshkent, 2003. № 1. - B.65-71.
2. Adeeb Khalid. Ulama and the State in Uzbekistan// Asian Journal of Social Science. Vol. 42, No. 5(2014), pp.517-535.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi.
4. P - 2456-jamg‘arma - SSSR Xalq komissarlari soveti qoshidagi Diniy ishlar kengashining O‘zbekiston SSRdagi vakilligi.

